



800 ta savolga 800 ta javob

1-qism

Guliston-2020

Sirdaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi
Metodik xizmat bo'limi

“800 ta savolga 800 ta javob”

Testlar to'plami.

Tuzuvchi: *Davranova Gulsara Mamatovna*

Metodik tavsiya umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari, fan metodistlari uchun mo'ljallangan bo'lib Sirdaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasi o'quv-metodik kengashining 2020-yil 28 maydagi 5- sonli qarori asosida nashrga tayyorlandi va fan o'qituvchilariga elektron varianti etkazilishiga ruxsat etildi.

Tabiatshunoslik fani.

- 1. O'simliklar qanday ko'rinishda bo'ladi?**
O't, buta, daraxt
- 2. Yer sharining diametri qancha?**
12800 km
- 3. Oyning massasi yernikidan necha marta kam?**
81 marta kam
- 4. Yumshoq bug'doy navi qachon ekiladi?**
Kuzda
- 5. Quyosh nuri qaysi faslda tik tushadi?**
Yozda
- 6. Katta odam yuragining og'irligi qancha?**
300 gramm
- 7. Katta odam yuragi bir daqiqada qancha uradi?**
70-72 marta
- 8. Nerv tizimi nimalardan iborat?**
Bosh miya, orqa miya, nerv tolalaridan iborat
- 9. Eng sovuq sayyora?**
Uran
- 10. Ipak qurti necha kunda pilla o'ray boshlaydi?**
23-25 kunda
- 11. Chug'urchuq bir kunda taxminan necha gramm chigirtkani yeydi?**
200 gramm
- 12. Quyoshning diametri yernikidan necha marta katta?**
109 marta
- 13. Mamlakatimiz hududining G'arb qismini egallagan pasttekisliklar?**
Turon pasttekisligi
- 14. Ko'l nima?**
Tabiiy ravishda to'plangan suv havzasi
- 15. Eng kichik sayyora?**
Merkuriy
- 16. Kakkuqush bir soatda nechta tukli qurtni yeydi?**
100 ta
- 17. G'oz bir mavsumda nechta tuxum qo'yadi?**
30-50 tadan ko'p
- 18. Ekvator ya'ni yer shari belbog'ining uzunligi qancha?**
40000 km

- 19. Ingichka ichak uzunligi necha metr bo'ladi?**
6-7 metr
- 20. Endi tug'ilgan chaqaloq bir minutda necha marta nafas oladi?**
30-45 marta
- 21. Suv sovuganda kengayadimi , torayadimi?**
Torayadi
- 22. Suv necha gradusda qaynaydi?**
100 C da
- 23. 1-sinf Atrofimizdagi olam darsligining mualliflari kimlar?**
N.Mamadinova M.Ahmedova
- 24. Qaysi sayyoralarning tabiiy yo'ldoshi yo'q?**
Merkuriy va Venera
- 25. Qadimda qaysi sayyorani "Urush xudosi" deb atashgan?**
Mars
- 26. Meteor nima?**
Havoda yonib ,yorug' iz qoldiradigan osmon jismi
- 27. 2-sinf Atrofimizdagi olam darsligi mualliflari kimlar?**
P.G'ulomov, Sh.Mirzaxmatova
- 28. Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi qachon uchirilgan?**
1957-yil 4-oktabr kuni
- 29. Abu Rayhon Beruniy globusining diametri necha metr?**
5 metr
- 30. Yil deb nimaga aytiladi?**
Yer sharining Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan vaqtga
- 31. 3-sinf Tabiatshunoslik darsligining mualliflari kimlar?**
A.Bahromov,Sh. Sharipov, M.Nabiyeva
- 32. Tabiat nechiga bo'linadi va qanday?**
2 ga Jonli va jonsiz
- 33. Globus nima?**
Yer sharining kichraytirilgan modeli
- 34. Jonli tabiatga nimalar kiradi?**
Yer yuzidagi barcha o'simliklar va hayvonlar
- 35. O'lkamizdagi yirik ko'llarni toping?**
Sariqamish, Aydarko'l, Arnasoy
- 36. 4-sinf Tabiatshunoslik darsligi mualliflari kimlar?**
Akbar Bahromov, Shavkat Sharipov, Manzura Nabiyeva
- 37. Yer yuzasining necha qizmi suvdan iborat?**
4 dan 3 qismi

- 38. Odam miyasining necha foizi suvdan iborat?**
80 foizi
- 39. 1 yil necha kun?**
365 sutka 6 soat
- 40. Fevral oyi 29 kunlik bo'lgan yil nomi nima deyiladi?**
Kabisa yili deyiladi
- 41. Adirlarda yillik yog'in miqdori qancha bo'ladi?**
500-1000 mm
- 42. Tabiiy boyliklar necha turga bo'linadi ?**
3 turga
- 43. O'zbekiston hududida nechta qo'riqxonalar tashkil etilgan?**
8 ta qo'riqxonalar 1 ta biosfera rezervati
- 44. Mamlakatimiz yer maydoni qancha?**
448 900 kv.km
- 45. Ufq nima?**
Ochiq va tekis joyda Yer yuzining aylana chizig'i bilan chegaralangan chizig'i
- 46. Ufq tomonlari nechta?**
4 ta
- 47. O'zbekiston Qizil kitobining 1-jildida qancha o'simlik turlari o'ringan?**
302 ta
- 48. O'zbekiston Qizil kitobi 2-jildiga qancha hayvon turlari kiritilgan?**
200 dan ortiq
- 49. Tabiiy jismlarga nimalar kiradi?**
Tog' jinslari, metallar, tuproq namunalari, o'simliklar, hayvonlar
- 50. "Ekologiya" atamasini birinchi bor fanga kim kiritgan?**
Ernest Gekkel
- 51. Qaysi yulduz joyidan siljmaydi?**
Qutb yulduzi
- 52. Kompas nima?**
Ufq tomonlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan asbob
- 53. Mariana botig'i chuqurligi qancha?**
11022 metrga teng
- 54. Katta yoshdagilar bir daqiqada necha marta nafas oladi?**
16-18 marta
- 55. Katta yoshli odam tanasida qancha qon bo'ladi?**
5 litrdan ko'proq
- 56. Odamda necha xil qon tomirlari bor va qanday?**
2 xil arteriya va vena

- 57. Inson tanasida qancha suyak bor?**
200 dan ortiq
- 58. Odam tanasining asosiy qismlarini belgilang?**
Bosh, bo'yin, gavda, qo'l va oyoq
- 59. Ko'k kitning og'irligi qanchagacha bo'ladi?**
145 tonnagacha
- 60. Bulutsiz tunda qanchagacha yulduzlarni ko'rish mumkin?**
3000 taga yaqin
- 61. Mirzo Ulug'bek nechta yulduz haqida yozgan?**
1018 ta
- 62. Quyosh massasi yernikidan necha marta katta?**
330000 marta katta
- 63. Sirdaryoning uzunligi qancha?**
3019 km
- 64. Amudaryoning uzunligi qancha?**
2540 km
- 65. Cho'l turlarini belgilang?**
Qumli, gilli, toshli
- 66. O'zbekiston hududida qanday o'rmonlar bor?**
Tog', to'qay, cho'l o'rmonlari
- 67. Ko'k kitning uzunligi qanchagacha bo'ladi?**
32 metrgacha
- 68. Delfinlar guruhida qanchagacha delfin bo'ladi?**
20 dan 100 tagacha
- 69. Dunyoda otlarning qancha zotlari mavjud?**
200 dan ortiq
- 70. Kurka bir yilda qancha tuxum qo'yadi?**
70-90 ta
- 71. Jirafaning bo'yini belgilang?**
6 metr
- 72. Bo'ri nechtagacha bolalaydi?**
4 tadan 13 tagacha
- 73. Ayiqning og'irligi qanchagacha bo'ladi?**
1000 kilogrammgacha
- 74. Ipak qurti boqilayotgan xona harorati qancha bo'lishi kerak?**
28 gradusdan 30 gradusgacha
- 75. Tuproqning asosini nima tashkil etadi?**
Gil

- 76. Ob-havo deb nimaga aytiladi?**
Havoning ma'lum vaqt va joydagi holatiga ob-havo deyiladi
- 77. Yerga eng yaqin bo'lgan yulduzning nuri qancha vaqtda yetib keladi?**
4 yilda
- 78. Quyosh nuri yerga qancha vaqtda yetib keladi?**
8 minutda
- 79. Yerdan quyoshgacha bo'lgan masofa qancha?**
150000000 kilometrga yaqin
- 80. Marsning nechta tabiiy yo'ldoshi bor?**
2 ta
- 81. Tabiiy yo'ldosh nima?**
Sayyora atrofida doimiy aylanib yuradigan yirik osmon jismi
- 82. Eng katta sayyora qaysi?**
Yupiter
- 83. Barxan nima?**
Cho'ldagi do'nglik
- 84. Dinozavrlar qancha yil oldin paydo bo'lgan?**
230-200 mln yil avval
- 85. Globus so'zining ma'nosi nima ?**
Shar
- 86. Yer sharining ichi necha qismdan iborat?**
3 qismdan
- 87. Dinozavrlar qancha avval qirilib ketgan?**
70 mln yil avval
- 88. Bulbul bolasini necha kundan keyin uchirma qiladi?**
15 kundan keyin
- 89. Payvand necha xil bo'ladi?**
2 xil
- 90. Mamlakatimizning qaysi tomonida tog'lar bor?**
Sharq tomonida
- 91. Qushlar necha guruhga bo'linadi?**
4 guruhga
- 92. Suv tabiatda necha holatda uchraydi?**
Uch holatda
- 93. Oy nur sochadimi?**
Yo'q
- 94. Mamlakatimizda qancha qush turi uchraydi?**
410 turdan ortiq

- 95. Qovoq poyasining uzunligi necha metrgacha yetadi?**
10 metrgacha
- 96. Choʻllarda qum necha gradusgacha qiziydi?**
80 gradusgacha
- 97. Yonuvchi foydali qazilmalarga nimalar kiradi?**
Koʻmir, neft, tabiiy gaz, torf.
- 98. Yer yuzidagi quriqliklarning asosiy shakliga nimalar kiradi?**
Togʻlar va tekisliklar
- 99. Jomolungma(Everest) choʻqqisining balandligi qancha?**
8848 metr
- 100. Oy necha xil boʻladi?**
3 xil Yarim oy, toʻlin oy, xilol oy

Pedagogika fani

- 1. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari?**
Mimika, oʻqituvchining tashqi qiyofasi
- 2. Abu Nasr Farobiyning taʼlim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari qaysi qatorda berilgan?**
oʻrgatuvchi oʻqituvchi har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega boʻlishi lozim
- 3. Pedagogik takt bu.....**
oʻqituvchi kasbiy mahoratining asosi boʻlib, oʻquvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik taʼsir oʻtkazish, muloqotni insonparvarlik tuygʻulari asosida oʻrnatish oʻlchovi
- 4. Kreativlik bu.....**
Kasbiy hayot usuli, koʻp qirrali taʼlim jarayoni
- 5. Dars deb nimaga aytiladi?**
dars deb bevosita oʻqituvchining rahbarligida muayyan oʻquvchilar guruhi bilan olib boriladigan taʼlim mashgʻulotiga aytiladi;
- 6. Oʻquvchi ijodkorligida namoyon boʻluvchi komponentlar...?**
Evristik ijodkorlik, mahsuldor ijodkorlik.
- 7. Har bir dars nimalar asosida tuziladi?**
Taʼlimiy va tarbiyaviy funksiyalari va taʼlim prinsiplari asosida.
- 8. Taʼlimning maqsadi...**
Yosh avlodni ilmiy bilimlar, koʻnikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish.
- 9. Tarbiya – bu:**
Maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon boʻlib, bu jarayon insonni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan boʻladi.

10. Pedagogik qobiliyat necha turga bo‘linadi?

9 ta turga.

11. Pedagogik mahorat – bu:

Izlanish – ijodiy mehnat mahsuli. U bir qolipdagi ish uslubi emas, balki har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati.

12. O‘qituvchi – bu:

Fundamental va mutaxassislik fanlarini chuqur egallagan yuqori saviyali dars beradigan kishi.

13. Shaxs kamoloti – bu:

Irsiyat, muhit, tarbiya, ichki va tashqi sifatlar, iroda etiladigan va iroda etilmaydigan jarayon.

14. U yo‘q joyda mehnat unumi ham past bo‘ladi, asablar tez charchaydi, sog‘likka putur etadi bu...

O‘qituvchining pedagogik mahorati

15. “Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi” ko‘rik tanlovi nechinchi yildan beri o‘tkazilib kelinmoqda?

2006 yildan

16. Nechinchi yil “Barkamol avlod” yili deb e‘lon qilingan?

2010-yil

17. Nechinchi yildan boshlab “Respublika yosh o‘qituvchilar assostsiyasi” o‘z faoliyatini boshladi?

2009-yil

18. Muammoli o‘qitish yetarli darajada bo‘lishi uchun qanday bo‘lishi kerak?

Yaxlit o‘quv-tarbiya jarayoning uzviy qismi bo‘lishi kerak

19. O‘quvchilarni turli jamoa ishlariga, to‘garaklarga jalb qilish, o‘quvchining faol vaziyatini taminlab berishda namoyon bo‘ladigan pedagogik qobiliyatning turini belgilang?

Tashkilotchilik

20. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida inson kamolotida uch narsa muhim ro‘l o‘ynashini ta’kidlab o‘tadi. Bular nimalar?

Irsiyat, muhit, tarbiya

21. “O‘qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmog‘i lozim. Aks holda qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o‘qituvchidan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi” Ushbu so‘zlar qaysi buyuk pedagog olimga tegishli?

Adolf Disterverg

22. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida qachon qabul qilingan?

1997 yil 29 avgust.

23. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad?

Ilm, fan va madaniyatni yanada rivojlantirish, ta’lim sohasini bosqichma bochqich isloh qilish.

24. O‘qituvchi va o‘quvchi muloqotini bog‘lovchi asosiy vosita?

Nutq

25. Qobilyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga nima deyiladi ?

Iste’dod

26. O‘qituvchi ongida hosil bo‘ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og‘iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o‘ylashi qaysi nutq turiga kiradi?

Ichki nutq

27. “Ta’lim to’g’risida”gi qonuning nechanchi moddasida DTS berilgan?

7-moddasida

28. Bola shaxsining shaklanishini qanday omillar belgilaydi?

Biologogik va ijtimoiy omillar

29. Shaxsning tarkib topishida va rivojlanishidagi asosiy faoliyat turlari qaysilar?

O‘yin, o‘qish, mehnat

30. "Buyuk didaktika" asari muallifi kim?

Komenskiy

31. Ko‘nikma nima?

O‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish

32. Pedagogik texnologiyaning maqsadi-...?

Kam kuch va vaqt sarflab yuqori natijaga erishish

33. Shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati ...

Mahorat

34. Pedagogika so‘zi qanday ma’no bildiradi?

Lotincha “payne” - bola, “agogeyn” – yetaklamoq

35. Ped texnologiya bu - ...

Oldindan loyihalangan ma’lum bir pedagogik tizimni amaliyotga joriy qilish

36. Pedagogik tizim nima?

Shaxsga maqsadli pedagogik ta’sir ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan metodlar, vositalar va jarayonlar yig‘indisi

37. Ta’limda ko‘rsatmalilik metodining qanday turlaridan foydalaniladi?

Tasvirlash, namoyish etish va ekskursiya

38. Muayyan o‘qitish metodi yoki usullardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallari bu ...

Ta’lim vositalari

39. V. Bespalko ped. texnologiyaga qanday ta’rif bergan?

Ped. texnologiya bu pedagogning amaliyotga joriy etishi mumkin bo‘lgan pedagogik tizim loyihasidir

40. Jahonda birinchi masofaviy ta’lim universiteti qayerda ochildi?

1969-yil Buyuk Britaniyada

41. Innovatsiya so‘zi ning ma’nosi...

Inglizcha – yangilik kiritish va yangilik

42. Nutqsiz kommunikatsiya vositalariga nimalar kiradi?

Qo‘l, barmoq, yuz harakatlari, imo-ishora, ohang, pauza, kulgu, ko‘z yoshi va turq-trovat

43. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining tarkibiy qismlari...

Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish

44. Adaptatsiya nima?

O‘quv jarayoni, o‘quv faoliyatiga moslashuv

45. Analitik metod qanday metod?

Tahlil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim metodi

46. Baholash nima?

O‘quvchi egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari hamda shaxsiy sifati darajalarini belgilash

47. O‘quv mashg‘ulotini bir butun yaxlit holda yoki muayyan bo‘laklarga bo‘lib baholash nima deyiladi?

Dars tahlil

48. O‘quv faoliyatini amalga oshirish rejasi va ushbu faoliyatning mazmunini ifodalovchi me’yoriy hujjat

Dastur

49. Idrok nima?

O‘quvchining bilish, tushunish qobiliyati, zehni va fahm-farosati

50. O‘quvchi shaxsiga alohida yondashgan holda ta’lim-tarbiya berish ...

Individual o‘qitish

51. Imimtatsiya nima?

Biror narsaga taqlid qilish, o‘xshatma

52. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi faol hamkorlik usuli...

Interfaol usul

53. Alohida iqtidorli bolalarga ta’lim-tarbiya berish bu..

Kognitiv ta’lim

54. O‘quv jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan masala, vazifa ...

Muammo

55. Sinkveyn so‘zi qaysi tildan olingan?

Fransuz tilidan “ besh qator”

56. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarining qobiliyatlarini hisobga olgan holda alohida o‘quv rejasi va dasturlar asosida olib boriladigan ta‘lim turi qanday nomlanadi?

Tabaqalashtirilgan ta‘lim

57. Optimallashtirish nima?

Ko‘p sonli imkoniyatlardan eng qulayini tanlab olish

58. “ Didaktika” so‘zining ma‘nosi nima?

Ta‘lim berish va o‘qitish

59. Xulosa chiqarish turlari bo‘yicha ta‘lim metodlariga qaysilar kiradi?

Induktiv, deduktiv

60. Shaxs kamolotiga qanday omillar ta‘sir etadi?

Biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya

61. Abu Ali ibn Sinoning ta‘lim-tarbiya haqidagi qarashlari qanday edi?

Bolaga jamoada ta‘lim berish afzalligini ilgari surgan

62. Alisher Navoiyning qaysi asarida pedagogik qarashlar ko‘proq yoritilgan?

“ Mahbub – ul - qulub”

63. Tarbiyaning asosiy vazifasi nima?

Tarbiya yosh avlodni jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e‘tiqodini, axloqiy ko‘nikma va malakalarini, ehtiyoji va intilishlarini tarkib toptirishdan iborat

64. Pedagogik muloqot nima?

O‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan kasbiy muloqoti

65. Ta‘lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettirish, ularning bilish imkoniyatlari bilan bog‘liq usul qanday usul deyiladi?

Og‘zaki mashq

66. O‘qituvchi faoliyati va o‘quvchilar bilish faoliyatining xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalar nima deb yuritiladi?

O‘qitish tamoyillari

67. Maktabda dars jarayonida o‘qituvchi to‘liq erishishi lozim bo‘lgan maqsadlarni ko‘rsating

Ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi

68. Xalq pedagogikasining eng asosiy yo‘nalishi qaysi?

Yoshlarni hayotga tayyorlash

- 69. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyilini ko'rsating**
Ta'lim markaziga o'quvchi qo'yiladi
- 70. Og'zaki ta'lim metodlarini ko'rsating**
Hikoya, suhbat, ma'ruza
- 71. Ta'limda proyeksion uskunalar va slaydlarni qo'llash qaysi didaktik tamoyilda o'z ifodasini topgan?**
Ko'rgazmalilik
- 72. O'qituvchi va o'quvchi muloqotini bog'lovchi asosiy vosita**
So'z
- 73. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari**
Talab, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri
- 74. Tarbiya turlarini ko'rsating**
Aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat, nafosat, ekologik, etik, iqtisodiy, huquqiy
- 75. Empirik pedagogik texnologiya qanday texnologiya?**
Sezgi a'zolari orqali bilim olish texnologiyasi
- 76. Pedagogning umumiy madaniyati nimalardan iborat?**
Bilimi, ishonchi, qobiliyati va xulqi
- 77. Oliy ta'lim nechta bosqichdan iborat?**
2 ta
- 78. O'qituvchi rahbarligida mustaqil ish metodini ko'rsating**
Boshqaruv
- 79. Qaysi tushuncha ehtiyoj, intilish, qiziqish kabi ma'nolarni anglatadi?**
Motiv
- 80. Insonparvarlik pedagogikasi bu..,**
tarbiyalanuvchini qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish
- 81. Pedagogikaning fan sifatidagi vazifalari qaysilar?**
Nazariy va texnologik
- 82. Pedagogikaning nazariy vazifalari necha xil darajada amalga oshiriladi?**
3 xil darajada: tavsiflash, diagnostik, prognostic
- 83. Pedagogikaning texnologik vazifalarini amalga oshirishning nechta darajasi mavjud?**
Proyeksion, qayta tiklash, refleksiv
- 84. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari – bu.....**
Shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan
- 85. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi. Bu qaysi pedagogika sohasi?**
Surdopedagogika

86. Tiflopedagogika qaysi masalalarni o‘rganadi?

Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarnirivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalari

87. Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy maqsad va vazifalari nima?

O‘quv – tarbiya jarayoni natijalarini sifatli baholash

88. O‘quvchilarning 6-7 yoshdan maktabga qabul qilish qaysi hujjatda ko‘rsatilgan?

“Ta’lim to‘g‘risida” gi ‘Qonunda

89. “Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir” hikmati kim tomonidan aytilgan?

Imom Buxoriy

90. O‘qituvchining nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiy pedagogik BKM lar majmui- bu.....

Pedagogik texnika

91. Pedagogik texnikaga qaysi harakatlar kiradi?

Mimika, jest, fantomimika, hazil-mutoyiba

92. Jest qaysi harakatni bildiradi?

Qo‘l harakati

93. Tana harakati – bu deyiladi.

Fantomimika

94. Zamonaviy ta’limning predmeti nima?

O‘quv jarayoni

95. Zamonaviy ta’limning ob’yekti nima?

O‘quv mashg‘uloti

96. Texnologiya tushunchasi fanga qachon kirib keldi?

1872-yilda

97. O‘qituvchining ta’lim jarayonini boshqarish bosqichlari?

rejalashtirish, tashkil etish, o‘quv harakatlari, natijalarni baholash va tahlil qilish

98. “Ta’lim va tarbiya berishda “...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi. Bordiyu ustoz juda ham yumshoq ko‘ngilli bo‘lsa, shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun o‘qituvchi bolalarning fe’l-atvoriga qarab ta’lim-tarbiyaning “qattiq” yoki “yumshoq” usullaridan foydalanishi mumkin” deydi. Bu fikrlar kimga tegishli?

Abu Nasr Forobiy

99. Kommunikativ qobiliyatni nomoyon etuvchi asosiy komponentni belgilang

Nutq madaniyatiga doir bilimlar

100. Ekspressiv bu - ...

his-tuyg‘uga berilish holati

AKT fani

1. Algoritm tushunchasi

biror maqsadga erishish uchun mo'ljallangan buyruqlarning ketma-ketligi

2. Fayllar o'chirilganda...

Fayllar diskdan o'chib ketmaydi, ular Savatcha papkasida saqlanadi, ammo avval saqlanayotgan papkasida bo'lmaydi

3. Modem - bu ... uchun mo'ljallangan qurilma

axborotni telefon kanallari orqali uzatish axborotni chop etish

4. WWW qanday ma'no anglatadi?

Xalqaro o'rgimchak to'ri

5. Qaysi qatorda faqat Web-brauzerlar berilgan?

Opera, Google Hrome. AdWiper, Netscape Navigator

6. Elektron pochta (e-mail) ... uzatish imkonini beradi

xabarlar va biriktirilgan fayllarni

7. Informatika fani nimani o'rganadi?

axborotlarni olish, saqlash, ishlov berish, uzatish va undan foydalanishni hamma qirralarini o'rganuvchi fan.

8. MS WORD tahrirlagichidan klaviaturaning qaysi tugmalarini bosish orqali chiqib ketish mumkin?

[Alt][F4]

9. WORD tahrirlagichi ishga tushganda kompyuterning o'zi faylga qanday nom beradi?

Dokument1

10. Excel da xotiradagi jadvalni ochish menyusini ko'rsating.

Fayl

11. Power Pointda taqdimot slaydini namoyish etish uchun qaysi menyu buyrug'idan foydalaniladi?

Pokaz slaydov

12. Power Point dasturidan qaysi menyu yordamida chiqiladi?

Fayl

13. Internet nima?

Yagona andoza asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir.

14. Printer bu-

Axborotni qog'ozga chiqarish qurilmasi

15. Skaner qurilmasining vazifasi?

Qog'ozdagi ma'lumotlarni kompyuterga kiritib beruvchi qurilma

16. Quyidagilardan qaysi biri kompyuter qurilmasi?

Printer, Klaviatura, Flashka

17. Vinchesterning ikkinchi nomi-

Qattiq disk

18. Arxiv dasturlar berilgan qatorni toping

ZIP, ARJ, WINRAR.

19. Arxiv fayl-..?

Bir yoki bir necha faylning siqilgan holdagi ko‘rinishi.

20. Winrar dasturida arxivlangan fayllarning nomi qanaqa kengaytmaga ega bo‘ladi?

.rar

21. Quyidagilardan axborotlarni kiritish qurilmalarini ko‘rsating

a) klaviatura b) monitor c) skaner d) printer e) plotter

a, c

22. Wordda matndagi yuritgich (kursor) dan oldingi belgilarni o‘chirish uchun qaysi tugmani bosiladi?

Backspace

23. Num Lock klavishi ... (gapni davom ettiring)

Qo‘shimcha tugmalarni ishga tushirish uchun

24. Sichqoncha nima uchun kerak?

Turli boyektlarni boshqarish uchun

25. POWER tugmasi nima uchun kerak?

Kompyuterni yoqish va o‘chirish uchun

26. Caps Lock klavishi ... (gapni davom ettiring)

Katta harflar kiritish uchun kerak

27. Printerning vazifasi

Axborotlarni qog‘ozga chop etish

28. Shift klavishi nima uchun kerak

Katta harflarni kiritish va sonlar ishtirok etgan tugmalardagi boshqa belgilarni kiritish uchun

29. DELETE klavishining vazifasi

Matn yoki berilganlarni o‘ng tomonga qarab o‘chiradi

30. Backspace (<) klavishining vazifasi

Matn yoki berilganlarni chap tomonga qarab o‘chiradi

31. F1, F2, F3,...F12 tugmalari qanday tugmalar?

Funksional tugmalar

32. Microsoft Word matn muharririga kirish ketma-ketligi?

Pusk – Programmo’ – Microsoft Office - Microsoft Word

33. Microsoft Word dasturi qanday ishlar uchun mo‘ljallangan?

hujjatlar tayyorlash uchun mo‘ljallangan

34. Yangi yaratilgan hujjatni saqlash uchun qaysi buyruqlar tanlanadi?

Fayl menyusidagi "Sozdat"

35. Klaviatura tillari qaysi tugmalarni birgalikda bosish orqali amalga oshiriladi?

Alt Shift yoki CtrlShift

36. Klaviaturaning qaysi tugmasi bilan bosh (katta) harf yoziladi?

Shift

37. Klaviaturaning qaysi tugmasi bilan hammasi bosh(katta) harflar yoziladi?

Caps Lock

38. Axborot hajmining eng kichik o'lchov birligi ?

Bit

39. Axborot uzatish tezligining birligi - ?

Bot

40. Klaviatura - ... xizmat qiladi..

Kompyuterga har xil belgilarni kiritish uchun

41. Word da jadval qo'yish uchun qaysi menyudan foydalanamiz?

"Tablitsa"

42. Ma'lumotni qog'ozga chiqarish uchun klaviaturada qaysi tugmachalar bosiladi?

CtrlP

43. Power Point dasturi qanday ishga tushiriladi?

Pusk'g' Programmo'g' Microsoft Power Point

44. Slayd nima?

Ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varag'i

45. CD ROM qanday qurilma hisoblanadi?

Kompakt diskdagi ma'lumotlarni o'qish qurilmasi

46. Antivirus dasturlari to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?

Dr. Web, Panda, Kasperskiy, NOD

47. Fayl-bu...

Ixtiyoriy belgilar ketma-ketligining xotirada biror nom bilan saqlanishi

48. Katalog –bu....

Fayl nomi, xajmi, oxirgi marta yozilish sanasi va vaqti, atributlari xaqidagi malumotlarni saqlovchi diskdagi maxsus joy

49. Qaysi kengaytma matnli fayl kengaymasi bo'ladi?

txt, doc

50. Windows deganda nimani tushunasiz?

Oynalar, darchalar

51. Matn muharriri yordamida hosil qilinadi

Matnli fayl, hujjatlar

52. Virus nima?

Maxsus yozilgan dastur

53. Multimediya nima?

Turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi

54. Axborot texnologiyalari ... ni o'z ichiga oladi.

axborotlarni izlash, to'plash, qayta ishlash va undan foydalanish vositalari

55. Internetga asos bo'lgan tarmoq nomi

ARPANet

56. Quyidagilardan qaysilari web-brauzer?

1. MS Word 2. MS Internet Explorer 3. MS Paint 4. Opera

5. Netscape Navigator

2, 4, 5

57. Quyidagilardan qaysi biri virus?

A) troyan B) cherv C) replikator

barchasi to'g'ri

58. Skaner nima uchun hizmat qiladi?

Kompyuterga turli ma'lumotlarni o'tkazish uchun

59. Modem - bu ... uchun mo'ljallangan qurilma

axborotni telefon kanallari orqali uzatish

60. Excelda yacheyka(katakcha) nima?

jadval ustuni va satri kesishmasi

61. HOME tugmasining vazifasi

Satr boshiga o'tish

62. END tugmasining vazifasi

Satr oxiriga o'tish

63. Page Up tugmasining vazifasi

Sahifa boshiga o'tish

64. PageDown tugmasining vazifasi

Satr oxiriga o'tish

65. PrtScr tugmasining vazifasi

Ekrandan nusxa olish

66. Axborot so'zining ma'nosi

Moddiy dunyo qismining belgilar orqali ifodalanishi

67. Axborotning eng muxim sifatleri nechta?

4 ta

68. "O'zbekiston xavo yo'llari" iborasi necha baytdan iborat?

25 ta

69. Informatika faniga qachon asos solingan?

XX asr o'rtalarida

70. Boshqarish qurilmasi bu ...

arifmetik va mantiqiy xisoblash ishlarini bajaradi

71. Dastur oynalarini berkitish uchun?

(x)yopish, AltF4 tugmalari, «Vo'xod» bandi orqali

72. «Palitra» qaysi dastur menyusi xisoblanadi?

Paint grafik muxarriri

73. Slayd nima?

Ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varag'i

74. Prezentatsiya nima?

Slaydlar turkumi va namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi

75. CD ROM qanday qurilma hisoblanadi?

Kompakt diskdagi ma'lumotlarni o'qish qurilmasi

76. "Kopirovat" buyrug'i qaysi menyuda joylashgan?

Pravka

77. "Vstavit" buyrug'ini vazifasi bu....?

Xotiraga olingan ma'lumotni boshqa bir joyga qo'yish

78. Matn bu ...?

Simvol, so'z, qator, parcha, abzas(xat boshi) sahifa kabilardan tashkil topgan.

79. Kompyuterning qo'shimcha qurilmalari berilgan qatorni aniqlang?

Sichqoncha, modem, printer, skaner.

80. Fayl-bu...

Ixtiyoriy belgilar ketma-ketligining xotirada biror nom bilan saqlanishi

81. Katalog –bu....

Fayl nomi, xajmi, oxirgi marta yozilish sanasi va vaqti, atributlari xaqidagi malumotlarni saqlovchi diskdagi maxsus joy

82. Qaysi kengaytma matnli fayl kengaymasi bo'ladi?

txt, doc

83. Informatika uchun asosiy ashyo nima?

Axborot

84. Axborotni aniq bir qoidalar asosida qayta ishlash uchun qulay bo'lgan belgilar bilan almashtirish jarayoni nima deb ataladi?

kodlash

85. Elektron pochta web-saytlardan ... belgisi bilan farqlanadi.

@

86. Algoritm so'zi qaysi buyuk olimning nomi bilan bog'liq?

Al-Xorazmiy

87. Eng katta axborot o'lchov birligini ko'rsating.

Terabayt

88. Barcha sezgi a'zolarimoiz orqali borliqning ongimizga aksini yoki ta'sirini, bog'liklik darajasiga nimani tushunamiz

Axborot

89. Kompyuterning ish jarayonida vujudga keladigan axborotlarni ekranda yoritishga xizmat qiladigan qurilmaning nomi deyiladi.

Monitor

90. Insonga uzluksiz ta'sir etib turuvchi axborotlarni axborotlar deb ataladi

Analog

91. Axborotlar ustida amallar bajarish qulay bo'lishi uchun aniq bir qoidalar asosida boshqa ko'rinishga o'tkazish jarayoni axborotni nima deyiladi

kodlash

92. Belgilar soni (hajmi) bir xil bo'lmasa nima deb ataladi

notekis kodlash usuli

93. Raqamnideganda uni sonlar alifbosida o'zidan keyin kelgan raqamga almashtirish tushuniladi.

surish

94. Bit axborotning raqamli ifodasidagi 0 yoki 1 belgisi bo'lib, ingliz tilidagi "binary digit" so'zlaridan olingan va nima degan ma'noni anglatadi.

Ikkilik raqam

95. Bit axborotning qaysi raqamlarni ifodalaydi.

0 va 1

96. Axborot ma'lum sarajadabo'lishi kerak, aks holda undan foydalanish ehtiyoji tug'ilmaydi.

Qimmatli

97. Internet tarmoqiga ma'lumotlarni yuklash uchun qaysi dasturdan foydalanamiz?

“Download”

98. Axborotlar ustida bajariladigan amallar bilan bog'liq barcha jarayonlar nima deb ataladi.

Axborotli jarayonlar

99. F1 tugmasining vazifasi

Dastur haqida ma'lumot olish

100. ! belgisini hosil qilish uchun qaysi tugmalar birgalikda bosiladi

Shift1

Ona tili o'qitish metodikasi

Metod so'zining ma'nosi?

Yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, "bilish va tadqiqot yo'li" ma'nosini anglatadi.

Metodika fani nimani o'rganadi?

Nimani o'qitish kerak?, qanday o'qitish kerak? kabi larga javob beradi.

3. Ona tili o'qitish metodikasi fani qanday vazifalarni bajaradi?

Boshlang'ichsinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya'ni kursning dasturini belgilash va asoslash

4. Boshlang'ichsinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani nechta bo'limni o'z ichiga oladi?

4 ta bo'lim

5. Ona tili o'qitish tamoyillari nechta?

5 ta tamoyil

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilari egallashi lozim bo'lgan fonetik-grammatik ko'nikmalar to'g'ri berilgan javobni toping.

Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar

7. Burro talaffuz mashqlari....

Baland talaffuzni, talaffuz tempini, nuqsonli talaffuz qilinadigan undosh tovushli so'zlarning talaffuzini, murakkab tovush birikmalarining to'g'ri talaffuzini mashq qilish.

8. O'qish va yozuv darslariga qo'yiladigan umumdidaktik talablar...

Dars tarbiyalovchi harakterda bo'lishi, ta'limiy maqsadni amalga oshishi, izchil va istiqbolli bo'lishi, samarali xilma-xil metod va usullar tanlanishi, dars materiali ilmiy va o'quvchilarning saviyasiga mos bo'lishi

9. O'qish va yozuv darslariga qo'yiladigan maxsus metodik talablar...

Nutqning ifodali, obrazli, aniq, mantiqiy to'g'ri bo'lishi, yozuvning mazmunli va savodli bo'lishi, tilga sezgirlikni tarbiyalash.

10. O'quv va yozuv malakasi....

Nutqqa oid malaka

11. Savod o'rgatishda o'quvchilar toliqib qolmasliklari uchun ish turlari qancha vaqt orasida almashtiriladi?

8- 10 daqiqa

12. Savod o'rgatishda yozuv darslarining davrlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Tayyorgarlik davri, asosiy davr

13. Soʻzning tovush tarkibini bilishning qanday ahamiyati bor?

Soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish, soʻzdagi harflarni tushirib qoldirmay yoki oʻrnini almashtirmay yozish malakasini shakllantirish uchun kerak.

14. Tovush ustida ishlash jarayonidagi analiz mashq turlari qaysi qatorda berilgan?

Nutq (gap)dan soʻzni ajratish, soʻzni boʻGʻinga boʻlish va urGʻuli boʻGʻinni ajratish, oʻrganiladigan yangi tovushni ajratish.

15. Tovush ustida sintez mashq turlari qaysi javobda berilgan?

Oʻrganilgan tovush-harfdan kesma harf va boʻGʻinlar asosida boʻGʻin, soʻz, gap tuzish va oʻqishni mashq qilish

16. Xat yozuvchi tinish belgisini qoʻyishda avvalo nimaga asoslanadi?

Bayon etiladigan fikrning mazmuniga

17. Gapning mazmuni va soʻroq belgisini qoʻyishni talab etadi Intonatsiyasiga

18. Analitik-sintetik tovush metodi savod oʻrgatishga tashkiliy tomondan qanday yondashuv?

Tashkiliy tomondan 2 davrga boʻlinadi, alifbegacha tayyorgarlik davri, alifbe davri

19. Soʻz tarkibini oʻrganishning birinchi bosqichi qaysi qatorda berilgan?

Soʻz yasalishini oʻrgatishga tayyorgarlik bosqichi

20. Ertak matni bilan ishlash jarayonida qoʻllangan badiiy vositalar qaysilar?

Jonlantirish, metafora, mubolaGʻalar ustida ishlash.

21. Ertak aytishning qanday afzalliklari bor?

Ogʻzaki nutqini oʻstiradi, bolalar nutqini yangi soʻz va iboralar bilan boyitadi.

22. Qaysi janr mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda oʻquvchilarning oʻz nutqida til vositalaridan oʻrinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak

23. Toʻgʻri oqish nima?

Xato qilmasdan, yanglishmasdan oʻqish tushuniladi, yaʼni soʻzning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, soʻzdagi tovush yoki boʻgʻinni tushirib qoldirmay, boshqa tovusni qoʻshmay, harflar oʻrnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, soʻzga urgʻuni toʻgʻei qoʻyib oʻqish hisoblanadi.

24. Sintetik bosqich qaysi oʻqish uchun xarakterli hisoblanadi?

Soʻzni sidirGʻa oʻqish

25. Oʻqish koʻnikmalari qachon shakllanadi?

Oʻqish koʻnikmalari savod oʻrgatish jarayonida shakllanadi.

26. O‘qish malakalari nima?

O‘qish malakalari deganda badiiy asar matnini to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish tushuniladi

27. Muayyan tezlikda o‘qish qaysi o‘qishga xizmat qiladi?

Tez va ongli o‘qishga

28. O‘qish malakasining sifatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa, uning asosini nima tashkil qiladi?

O‘qish malakasining sifatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning asosi ongli o‘qish hisoblanadi.

29. Boshlang‘ichsinf o‘quvchilari o‘qishda nima uchun xatoga yo‘l qo‘yadilar?

Boshlang‘ichsinf o‘quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o‘rtasida puxta sintez yo‘q bo‘lgani uchun ular o‘qishda xatoga yo‘l qo‘yadilar.

30. Analitik bosqich o‘qishning qaysi davriga to‘g‘ri keladi?

Analitik bosqich 1-sinfning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

31. “To‘g‘ri o‘qish bu- materialning tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko‘chirishdir”. Ushbu ta’rif qaysi metodistga tegishli?

Rus pedagogi Ushinskiy.

32. Sintez mashq turlari berilgan qatorni toping

Nutqni bo‘laklarga bo‘lish

33. Savod o‘rgatish mashqlarining turlari qaysi javobda berilgan?

Analiz mashqlar, sintez mashqlar, artikulyatsiya va burro talaffuz mashqlari

34. Savod o‘rgatishning asosiy metodi

Analitik-sintetik tovush metodi

35. Savod o‘rgatish davrida ta’limning asosiy predmetiga ko‘ra darslar necha xil bo‘ladi?

O‘qish va yozish darslari.

36. Savod o‘rgatish davri necha soatni tashkil etadi?

128 soat

37. Izohli o‘qishga kim, qachon asos solgan?

K.D.Ushinskiy, XIX asrning 60-70-yillarida

38. Bolalarning savod o‘rgatishga tayyorgarligini hisobga olish jihatlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

O‘qish ko‘nikmasi, yozuv ko‘nikmasi, og‘zaki bog‘lanishli nutq.

39. Analiz mashq turlari:

O‘rgatilgan tovush-harflardan kesma harf va bo‘g‘inlar asosida bo‘g‘in, so‘z, gap, to‘g‘ri o‘qishda ularning tarkibini o‘zgartirish va o‘qishni mashq qilish.

40. Yozuv darslarida nusxa ko‘chirish nima?

Nusxa ko‘chirish-o‘quvchi bir harfni yozishda xatoga yo‘l qo‘yayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi ularni nuqtalar bilan ifodalab, daftarga qalamda yozib ko‘rsatadi.

41. Ot qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

Kim?, kimlar?, nima?, nimalar?

42. Fe‘l qaysi so‘z turkumiga bog‘lanadi?

Ot

43. Sifat qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

Qanday?, qanaqa?

44. Ot nutqda qaysi so‘z turkumlari bilan birika oladi?

Sifat, son, olmosh, fe‘l

45. Unli tovush bilan tugagan otlarga qanday egalik qo‘shimchalari qo‘shiladi?

-m, -ng, -si, -miz, -ngiz, lari.

46. Qaratqich kelishigida turlangan ot gapda qaysi so‘z turkumiga bog‘lanadi?

Otga

47. Pedagogning o‘z ustida ishlashi necha bosqichda kechadi?

5 bosqichda

48. Fe‘llar qanday qo‘shimchalar bilan tuslanadi?

Shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanadi

49. So‘z tarkibi necha bosqichda o‘rganiladi?

To‘rt bosqichda

50. Bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi nechta?

3 ta

51. Uch-uch, yuz-yuz, qirq-qirq so‘zlar son bilan qanday ma‘noli so‘zlar deyiladi?

Son bilan shakldosh so‘zlar

52. So‘z tarkibining birinchi bosqichi qaysi qatorda berilgan?

So‘z yasalishini o‘rganishga tayyorgarlik bosqichi

53. Boshlang‘ichsinflar ona tili dasturiga muvofiq so‘zning morfemik tarkibi nechanchi sinfdan boshlab o‘rganiladi?

3-sinfda

54. Til ma‘nolarini tushunish tamoyili qaysi?

So‘zni, morfemani, so‘z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma‘lum voqea-hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash demakdir.

55. Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyilini ko'rsating.

Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

56. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili

Til- juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi.

57. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili?

Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

58. Darsga qo'yiladigan umumiy talablar nechta

5 ta

59. Darsga qo'yiladigan ta'limiy talabni belgilang?

Har bir dars o'quvchiga qandaydir bilim berishi lozim. Har bir darsning asosiy maqsadi ham shu.

60. Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talabni belgilang.

Bu har jihatdan komil shaxsni tarbiyalash demakdir.

61. Darsga qo'yiladigan didaktik talablarni belgilang.

Bu o'qituvchiga darsni to'g'ri tashkil qilish: dars maqsadlarini, turini to'g'ri belgilash, darsdagi u yoki bu materialni o'quvchilarga yetkazib berish usullarini to'g'ri tanlash, o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash shakllarini aniqlab olish demakdir.

62. Darsga qo'yiladigan psixologik talablarni belgilang.

Bu talab shuni nazarda tutadi-ki, o'qituvchi o'z o'quvchilarining xarakter-xususiyatini qanchalik darajada yaxshi bilishi juda katta ahamiyatga ega.

63. Darsga qo'yiladigan gigiyenik talablarni belgilang.

Bu o'quvchilar salomatligi haqida qayg'urish demakdir.

64. Ona tili darslarida qo'llangan metodlarni aniqlang.

Bayon qilish metodi, suhbat metodi, muammoli o'qitish metodi

65. Induksiya metodiga berilgan ta'rifni toping

O'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi.

66. Deduksiya metodiga berilgan ta'rifni toping

O'quvchi tayyor qoida – ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi.

67. Jufti bor jarangli undoshlar nechta?

8 ta.

68. Jufti bor jarangsiz undoshlar nechta?

8 ta.

69. Jufti yo‘q jarangli undoshlarni belgilang

L, m, n, r, ng, y.

70. Tilga oid tushunchalarni shakllantirish jarayoni nechta bosqichga bo‘linadi.

4 ta bosqichga.

71. Grammatik mashqlar guruhini belgilang

Morfologik mashqlar va sintaktik mashqlar.

72. Morfema nima?

So‘zning eng kichik, bo‘linmaydigan ma‘noli qismi.

73. O‘zak morfema nima?

So‘zda albatta qatnashadigan va leksik ma‘no anglatadigan morfema.

74. Affiksal morfema nima?

Mustaqil holda leksik ma‘no anglatmay, so‘zning leksik va grammatik ma‘nolarini shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema.

75. So‘z yasovchi qo‘shimchalar nimaga xizmat qiladi?

Ular so‘zning leksik ma‘nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

76. Shakl yasovchi qo‘shimchalar nimaga xizmat qiladi?

Bu qo‘shimchalar so‘zlarni grammatik jihatdan shakllantirib, turli grammatik ma‘nolarni ifodalaydi.

77. So‘z tarkibi nechta bosqichda o‘rganiladi?

4 ta.

78. So‘z tarkibini o‘rganishning birinchi bosqichini belgilang.

So‘z yasalishini o‘rganishga tayyorgarlik bosqichi.

79. So‘z tarkibini o‘rganishning ikkinchi bosqichini belgilang.

Bir xil o‘zakli so‘zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish.

80. So‘z tarkibini o‘rganishning uchinchi bosqichini belgilang.

O‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchlarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o‘rganish metodikasi.

81. So‘z tarkibini o‘rganishning to‘rtinchi bosqichini belgilang.

So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bo‘g‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash.

82. So‘z nimani bildiradi?

Shaxs, narsa, belgi, miqdor va tartib, harakat yoki holatni bildiradi.

83. Barcha otlarning umumiy leksik ma‘nosi...

Shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi.

84. Otni o‘rganishga tayyorlov bosqichi qaysi davrga to‘g‘ri keladi.

Savod o‘rgatish davriga.

- 85. Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi nima deyiladi?**
Turlanish.
- 86. Otlarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi nima deyiladi?**
Tuslanish.
- 87. Sifatni o‘rganish metodikasi qanday xususiyatga asoslanadi?**
Lingvistik xususiyatga.
- 88. Boshlang‘ichta’limda son nechta yo‘nalishda o‘rganiladi?**
3 ta.
- 89. Fe’l gapda qanday vazifada keladi?**
Kesim.
- 90. Bo‘lishli fe’llar deb nimaga aytiladi?**
Fe’l harakatining bajarilganligini bildiradi.
- 91. Shaxs-son qo‘shimchalari zamon qo‘shimchalaridan..... qo‘yiladi.**
Keyin.
- 92. Boshlang‘ichta’limda qanday olmoshlar o‘rganiladi?**
Kishilik olmoshlari.
- 93. Punktatsiyada nima o‘rganiladi?**
Tinish belgilari.
- 94. Gap ustida ishlash nechta yo‘nalishda bo‘ladi?**
5 ta.
- 95. So‘z birikmasiga berilgan ta’rifni toping.**
So‘z birikmasida bir so‘z hokim, ikkinchi so‘z tobe bo‘ladi.
- 96. Boshlang‘ich sinflarda qanday tinish belgilari o‘rganiladi?**
Nuqta, so‘roq, undov belgisi va vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o‘rgatiladi.
- 97. Imlo qoidalari qaysi bo‘limda o‘rganiladi?**
Orfografiya bo‘limida.
- 98. Diktant nima?**
Eshitib idrok qilingan so‘z, gap, matnni yozishdir.
- 99. Ta’limiy diktantlar**
Bilim berishga yo‘naltirilgan diktantlar.
- 100. Tekshiruv diktantlari.....**
O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

O'qish fani

1. Sinfдан tashqari o'qish darslari qachondan boshlab o'tiladi?

1-sinfning dastlabki haftasidanoq

2. Diksiya nima?

So'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri va aniq talaffuz etish

3. Epigraf nima?

Boshqa asarlardan, hikmatli so'zlar, xalq og'zaki ijodidan parchalar keltirish.

4. Xat-savod o'rgatish ishlari qaysi metod asosida olib boriladi?

Bo'g'in-tovush metodi asosida

5. "Buyuk didaktika" asari muallifi kim?

YA.A.Komenskiy

6. Intonatsiya bu...

Nutqning ritmik va ohangdor tuzilishi, ohangning past-balandligi.

7. 3-sinf o'qish darsligidagi "Opa-singil daryolar" hikoyasi qanday daryolar suhbati haqida?

Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon

8. Mustaqil ish faoliyatida asosiy faol shaxs kim?

O'quvchi

9. "Xatosini tushungan bola" hikoyasi kimning qalamiga mansub?

Xudoyberdi To'xtaboyev

10. 4 – sinf o'qish darsligining muallifi kim?

S. Matchonov. A. Shojalilov., X. G'ulomova

11. "Qush tili" she'ri kimning qalamiga mansub?

Mirtemir

12. 4-sinf o'quvchilarining o'qish malakasi qaysi bosqichga to'g'ri keladi?

Sidirg'a o'qish bosqichiga

13. IV sinf o'qish fani nechta bobdan iborat?

16 ta

14. 4-sinf o'quvchisi DTS talabi bo'yicha 1 daqiqada nechta so'z o'qishi lozim?

50 – 55 so'z

15. "Non qayerdan keladi" she'ri kimning qalamiga mansub?

Shukur Sa'dulla

16. O'qish faniga oid kompetensiya nechta?

2 ta

17. O'qish darslarida o'rgatiladigan o'qish turlarini toping?

ifodali, shivirlab, ichda ongli o'qish

18. Sinf dan tashqari o‘qish darslari 3-4 – sinflarda qancha vaqt oralig‘ida o‘tkaziladi?

2 haftada bir marta

19. Ichida o‘qish deb nimaga aytiladi?

ichida o‘qish ham tovushga asoslangan lekin unda ovozsiz o‘qiladi

20. Shivirlab o‘qish deb nimaga aytiladi?

yarim ovoz bilan o‘qishga aytiladi

